

**“Kelajak soati” darsining Oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun mashg‘ulot ssenariysi:**

**6-mavzu: “Internet va tahdidlar”**

---

**Annotatsiya:** Ushbu mashg‘ulot “Internet va tahdidlar” mavzusiga bag‘ishlanib, oliy ta’lim muassasalari talabalari orasida raqamli savodxonlikni oshirish, internetdagi xavf-xatarlar haqida xabardorlikni kuchaytirish va ongli, mas’uliyatli internet foydalanuvchisini shakllantirishga qaratilgan. Mashg‘ulot davomida talabalarga internetda mavjud bo‘lgan asosiy tahdidlar – shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi, soxta (feyk) xabarlar, onlayn qimor va firibgarliklar, kiberjinoyatlar, ijtimoiy manipulyatsiya va radikallashuv xavflari haqida tushunchalar beriladi. Shuningdek, talabalarning ushbu tahidlarga nisbatan tanqidiy fikrlash, axborotni tahlil qilish, shaxsiy axborot xavfsizligini ta’minalash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi.

**Dars maqsadi:** Talabalarning texnologiyalarga bo‘lgan munosabatini tanqidiy baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish, gadjetlardan foydalanishda mas’uliyat, me’yor va muvozanat tamoyillarini anglashiga yordam berish. Mashg‘ulot davomida ular texnologiyalarning inson psixologiyasi, muloqot madaniyati va hayot tarzi bilan bog‘liq ta’sirini muhokama qilib, shaxsiy tajribalar asosida xulosalar chiqaradilar.

**Umumiy maqsad:**

Talabalarga internet xavfsizligini tushuntirish, onlayn tahidlarni anglash va ulardan himoyalanish yo‘llarini o‘rgatish, raqamli madaniyat va mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish.

**⌚ Aniq maqsadlar:**

1. Kiber tahdid turlari bilan tanishtirish.
  2. Tanqidiy fikrlash va media savodxonligini oshirish.
  3. Internetda odob-axloq (netiket) qoidalarini tushuntirish.
  4. Muammoli vaziyatlarga nisbatan to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirish.
- 

**🧠 Asosiy g‘oyalar:** Onlayn madaniyat, axborot madaniyati, kiberxavfsizlik kabi tushunchalar yoshlar hayotining bir qismiga aylanmoqda. Internet – imkoniyatlar manbai, lekin ehtiyyotkorlik talab etadi. Har bir foydalanuvchi – kiberxavfsizlik zanjirining muhim bo‘g‘ini. Shaxsiy ma’lumotlar – bu boylik, uni ehtiyyot qilish kerak. Raqamli savodxonlik – zamonaviy fuqarolikning ajralmas qismi.

☞ “Xavfsiz internet – ongli tanlovdan boshlanadi!”

---

## ❖ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

### 1. Aqliy va tushunchalar darajasida:

- Internet va kiberxavfsizlik asosiy tushunchalarini anglaydi.
- Tahdid tushunchasini to‘g‘ri anglab, virtual xavf turlarini ajrata oladi.
- Kiberhujumlarga qarshi oldini olish choralari haqida fikr yurita oladi.
- Tanqidiy fikrlash va axborotga nisbatan ehtiyyotkorlikni shakllantiradi.
- Axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, mediamaxavfsizlik kabi tushunchalarni o‘zlashtiradi.

### 2. Hissiy va qadriy yondashuvda:

- Internet xavfsizligiga nisbatan mas‘uliyatli munosabat shakllanadi.
- Shaxsiy va boshqalarning ma‘lumotlariga hurmat bilan qarash hissi paydo bo‘ladi.
- Internetdagi noxolis va tahdidli holatlarga nisbatan sog‘lom munosabat shakllanadi.
- Axloqiy tanlov qilishga moyillik kuchayadi.
- Raqamli fuqarolik va global axloqiy qadriyatlarni qadrlaydi.

### 3. Amaliy ko‘nikmalarda:

- Phishing (firibgarlik) xabarnomalarini aniqlay oladi.
- Internet va ijtimoiy tarmoqlarda xabarlarga tanqidiy yondashish va axborot manbalarini tekshirish ko‘nikmasini rivojlantiradi.
- Axborotni tekshirish va ishonchli manbalarni ajratib olish ko‘nikmasini egallaydi.
- Noma‘lum dastur yoki havola bilan ishlashda ehtiyyotkorlikni qo‘llaydi.
- Internetdagi muloqotda madaniyat va odob-axloq qoidalariga rioya qiladi.

### 4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:

- Raqamli jamiyatda mas‘uliyatli fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi.
- Kiberxavfsizlik bo‘yicha atrofdagilarga ma‘lumot bera oladi.
- Axborot madaniyatining targ‘ibotchisi sifatida faol bo‘ladi.

- Axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya qilishga intiladi.
- Ijtimoiy tarmoqlarda mas’uliyatli ishtirok etish odatiga ega bo’ladi.

**Metapredmet:** metapredmet yondashuvi – bu fanlararo integratsiyani, ya’ni dars davomida faqat bitta fan bilan cheklanmasdan, turli fanlar bilan bog‘liq ko‘nikmalarini rivojlantirishni anglatadi.

**Masalan, “Internet va tahdidlar” darsida:**

### **1. Axborot texnologiyalari bilan integratsiya:**

- Internet xavfsizligi, raqamli iz, shifrlash, kompyuter viruslari va tarmoq xavfsizligi kabi mavzular orqali AKT bo‘yicha bilimlar mustahkamlanadi.
- Talabalar real hayotda kompyuter va telefonlar orqali yuzaga keladigan tahidlarni aniqlash va oldini olishga o‘rganadi.

### **2. Huquqshunoslik bilan integratsiya:**

- Internetdagi jinoyatlar (kiberjinoyat, kiberbullying, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash) bo‘yicha mavjud huquqiy me’yorlar bilan tanishadi.
- Talabalar axborotdan foydalanishda qonuniy javobgarlik, raqamli etik qoidalar haqida bilim oladi.

### **3. Psixologiya va pedagogika bilan integratsiya:**

- Internetdagi salbiy kontent (agressiya, zo‘ravonlik, yolg‘on xabarlar) ning ruhiy salomatlikka ta’siri o‘rganiladi.
- Ijtimoiy tarmoqlardagi bosim, yolg‘on identifikatsiya va onlayn odob haqida tushuncha hosil qilinadi.

### **4. Til va kommunikatsiya fanlari bilan integratsiya:**

- Talabalar internetdagi axborotni tahlil qilish, soxta xabarlarni aniqlash, ishonchli manbalarni ajratish kabi axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
- Muloqot madaniyati va onlayn etika bo‘yicha savodxonlik shakllanadi.

 **Dars hamkorি:** Oquvchilarni kasb hunarga yonaltirish va psixologik-pedagogik respublika tashxis markazi. [info-tashxis.uz](http://info-tashxis.uz)

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

 **Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, savol-javoblar, videolavha va qo‘sishma materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

### **Materiallar to‘plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar.

### **Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion**

Darsning birinchi qismining maqsadi - talabalarga gadgetlar haqida tushuncha berish va talabalarning mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir.

### **2-qism. Asosiy**

Asosiy qismda talabalar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda talabalarga turli xil videolavhalar va real voqealarning murojaatlari namoyish etiladi va tahlil qilishga qaratilgan savollar taklif etiladi.

### **3-qism. Yakuniy**

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.